

“YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI“

Xusanbayeva Yulduz Baxtiyorovna

Toshkent farmasevtika ta’lim va tadqiqot instituti ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail:yulduz@gmail.com

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar:

reproductive health, xenobiotics, ecology, adaptation mechanisms, anthropogenic load, environmental distress, health of women.

Annotation

O‘tgan tarixiy davrda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiyotimizni rivojlantirish, fan va ta’lim, madaniyat, ijtimoiy hayotimizni yuksaltirish, turmush sharoitimizni yaxshilash kabi ko‘plab yo‘nalishlarda tub islohatlarda amalga oshirildi. Bularning barchasi jonajon yurtimiz qiyofasiga joziba va mazmun baxsh etmoqda. Mamlakatimizni 2017 – 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakat strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloq qilishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. O‘zbekiston yangicha munosabatlar yo‘liga kirdi. U bugun o‘zgarmoqda, yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Mamlakat miqiyosidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muvoffaqiyatlar xalqaro miqiyosida ham e’tirof etilmoqda. Eng muhim, xalqimiz bu o‘zgarishlarga guvoh bo‘lib, qo‘llab-quvvatlanmoqda, istilohotlarga ishtirok etayapti. Shu tariqa ko‘z oldimizda “Yangi O‘zbekiston” barpo bo‘lmoqda.

. <http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Kirish. Bugun jahon miqiyosida yurtimiz haqida gap ketganda “Yangi O‘zbekiston ” iborasi tez-tez tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yanimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e’tirofidir.

Eng kata va ulug’ maqsadimiz – mana shu zaminda Uchinchi Renesansni barpo etish, ajdodlarimiz qadagan tug’ni qayta tutib, uni yanada balandroq ko‘tarish. Ana shunday ezgu va yuksak maqsadlar bilan intilayotgan, ulkan o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirilgan va davom etayotgan yurtimizni “Yangi O‘zbekiston, yangilanayotgan O‘zbekiston” deb atamoqdamiz.

Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g’oya asosida keng ko‘lamli islohoylarni amalga oshirmoqdamiz[1].

Bugun o‘z hayotiga, taqdiriga, mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarga, unga bo‘lgan o‘zaro munosabatlarga befarq bo‘lmagan har bir kishi bu o‘zgarishlarni anglaydi. Chunki inson hayotga faqat kuzatish uchun emas balki faoliyat yuritish uchun o‘zligini anglash uchun keladi.

Yangi O'zbekiston Yangicha dunyoqarash - uning kelajagi to'g'risida qayg'uradigan va Vatanning qismati deb biladigan kishilar orqali amalga oshadi.

Bugun Yangi O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari" bosh g'oyasiga tayanib[2], Uchinchchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi qo'yilgan ekan, uni bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas balki shu Vatan barchamizniki deya ko'nglida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik fazilatlari mujassam, iyomon-e'tiqodi butun har qanday shaxs targ'ibotchi bo'lishi lozim.

Metod. Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilgan:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
2. Mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va ziar shartiga aylantirish;
3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;
4. Adolatli ijtimoiy siyasat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloq qilish va yangi bosqichga olib chiqish;
6. Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;
7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'nalishida 2023 yil uchun quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 41 ta chora-tadbir belgilangan:

- Xalq bilan muloqotning mexanizmlari va ta'sirchan jamoatchilik nazoratining asoslarini takomillashtirish, "Obod qishloq", "Obod mahalla" va boshqa hududiy dasturlar ochiq e'lon qilinib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqiladigan tizimni yaratish;
- Maxallanening "faol modeli" ni joriy etish, uni aholining muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash;
- "Elektron parlament" doirasida deputatlarni o'z saylovchilari bilan, senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog'lash, ular bilan to'gridan to'g'ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiyayotgan muammolarni muhokama qilish xa hal etish jarayonini raqamlashtirish;
- Xalq deputatlari Kengashlarini hudularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, mahalliy byujetni shakllantirish va nazorat qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish hamda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining asoslarini yangilash;
- Davlat organlari faoliyatini "fuqaroga xizmat qilishga yo'naltirish" go'yasi asosida transformatsiya qilish, ular tomonidan markaziy tuzilma va xududlar kesimida "mahallabay" ishlashga qaratilgan yillik dasturlarni e'lon qilish va muhokama qilish tartibini joriy etish;
- Ixcham, professional, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil qilish byurokratiyanı bartaraf etish;
- "Elektron xukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini amaldagi 54% dan 100% ga yetqazish, davlat xizmatlari qamrovini oshirish.

Mamlakatimizda mustaqillikni yanada mustahkamlash yo'lidagi dadil islohotlar 2016 yildan boshlanadi. Bugun O'zbekistonni barpo etishga kirishdik, uning mustahkam zaminini yarata boshladik, ijtimoiy-

siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda bir necha o’n yillar davomida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar bajarildi.

Natija. O‘zbekiston tom ma’noda milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari yuz tutdi va bu quyidigilarda o‘z aksini topdi.

1. O‘zbekiston tarixida oxirgi to‘rt yil mobaynida tub burilish davri bo‘ldi. Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida O‘zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faol olib bormoqda. Davlatimiz olib borayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysiyanada takomillashtirildi. Rossiya, Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Pokiston, Hindiston, Birlashgan Arab Amirligi va boshqa davlatlar bilan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli aloqalar yanada kengaydi.

2020 yilda Respublikamiz Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligiga raislik qildi va pandemiyaga qaramasdan, ko‘zdautilgan 60 dan ziyod barcha xalqaro tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining oliv minbaridan O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ilgari surayotgan global va mintaqaviy tashabbuslari dunyo hamjamiyati tomonidan kata qiziqish bilan qabul qilinib, qo‘llab quvvatlanmoqda.

2. O‘zbekiston tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri qo‘sni Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo‘sinchilik, do‘slik va o‘zaro maanfatli hamkorlik munosatbatlarini mustahkamlashdan iboratdir. So‘ngi yillarda qo‘sni davlatlar bilan aloqalar yangi bosqichga chiqdi. O‘zaro maanfatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarda Markaziy Osiyoda “Yangi siyosiy atmosfera” vujudga keldi. O‘zbekiston, Qozog’iston va Turkmaniston tomonidan Davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududi haqida shartnomalar imzolandi. O‘zbekiston va Qirg’iziston o‘z chegaralarining 85% yuzasidan kelishuvga erishildi. Natijada ko‘pdan buyon davom etib kelayotgan muammolardan biri deyarli hal etildi. Transport sohasida hamkorlik kengayib, Tojikiston bilan to‘g’ridan-to‘g’ri aviaqatnovlar tiklandi. Tovar ayirboshlash hajmi oshdi, chegaraoldi hududlar o‘rtasida aloqalar mustahkamlandi.

3. Xalq bilan muloqat shakli va mazmuni tubdan yaxshilandi. “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyili joriy qilindi. Prezident Xalq va Virtual qabulxonalarida faoliyati yo‘lga qo‘yilib, bugungi kunga qadar aholining qariyb 4,5 millionga yaqin murojaati ko‘rib chiqildi. Jumladan, 2020-yilda 806 ming murojaat ko‘rib chiqilib, ularning 57% dan 456 mingtasi qanoatlantirildi. Barcha darajadagi davlat organlarida fuqarolarni uyma-uy yurib aholi muammolarni hal etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Fuqarolarning murojatlari bilan ishlashga ustuvor ahamiyat qaratila boshlandi. Xududlarda sayyor qabullar, uchrashuvlar o‘tkazila boshlandi. Katta auditoriyaga ega bo‘lgan qariyb 300 ga yaqin xususiy va idoraviy Internet nashrlari tashkil etildi.

4. Inson huquqlari uning sha’ni va qadr-qimmati, so‘z erkinligi haqiqiy ma’noda qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Jinoiy jazoga tortilgan va qilmishidan pushaymon bo‘lgan 4600 nafardan ziyod shaxs O‘zbekiston Prezidentining farmonlari bilan avf etildi. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minalash borasidagi tizimli islohatlar samarasini o‘laroq qariyb 2600 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarildi. Bugungi kunga kelib jazoni ijro etish tizimida insonparvarlik tamoyilini keng qo‘llash borasidagi ishlar davom ettirilib, xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda 25 ta manzil kaloniyalar bosqichma-bosqich qisqartirildi. Birinchi marta ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga berilgan jazo yengilrogi bilan almashtirilsa, u manzil – koloniyaga o‘tkazilmasdan, to‘g’ridan-tog’ri probatsiya

nazoratiga olinadi. Mazkur yengillik natijasida hozirgi jazo o'tayotgan 6 ming nafar shaxsga o'z mahallasi nazorat ostida oilasi bag'rida bo'lish imkoniyati yaratildi.

5. Davlat va jamiyat boshqaruvidagi ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash, gender tenglikni ta'minlash amalga oshirilayotgan islohatlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Respublika Kasaba uyushmalari Federatsiyasi boshchiligidagi mutasaddi idoralar, banklar va xokimliklar tomonidan joylarda uyma-uy yurib, 6 milliondan ortiq xotin - qizlarning muammolari puxta o'rganildi. Bu ishlarga mahallalarda yangi tashkil etilgan "Ayollar maslahat kengashlari" ham yaqindan ko'mak berdi. Bu o'rganishlar natijasida joylardagi haqiqiy ahvol yuzaga chiqdi. Bu o'rganishlar natijasida joylardagi haqiqiy ahvol yuzaga chiqdi. Shular asosida "ayollar daftari" shakllantirilmoqda, xotin-qizlarni qiyayotgan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga amaliy yechim topilmoqda. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish bo'yicha olib borilgan islohatlar natijasida parlamentimiz tarkibining 30% ayollardan iborat bo'ldi. Viloyat, shahar va tuman hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini joriy etildi.

6. Tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni davom ettirish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 2021-yilda 6 trillion so'm imtiyozi kreditlar ajratildi[3]. Xukumat tomonidan Jahon banki bilan birligida boshlangan qishloqlarda tadbirkorlikni rivojlantirish dasturini kengaytirish uchun qo'shimcha 100 million dollar yo'naltirish belgilandi. Yurtimizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish borasida amaliy choralar ko'rilmoxda. Bugungi kunda 130000 yaqin tadbirkorlik sub'yeqtalarini xotin-qizlar boshqarmoqda. 2020 yilda xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan 2,5 ming nafardan ziyod ayollarning kichik biznes loyihalari uchun 52 mlrd so'mga yaqin mablag' ajratildi.

7. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlardan biri qishloq xo'jaligi modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishdan iboratdir. Oziq-ovqat, chorvachilik, meva-sabzavotchilik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish uchun 100 trln so'm yoki 4 barobar kredit ajratildi.

Xulosa. Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarini yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotini shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida istiqbol uchun qabul qilingan dasturlar shubxasiz mamlakatimizda fuqarolar uchun munosib, erkin va farovon turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiladi. Bularning barchasi O'zbekistonda keng ko'lamda olib borilayotgan chuqur islohotlarning e'tirofidir. O'zbekiston o'zi tanlagan istiqlol va taraqqiyot yo'lidan dadil borib, "inson qadri uchun" tamoyilini ishonch bilan hayotga tadbiq etmoqda.

Mustaqillik yo'lida erishgan yutuqlarimiz, Prezidentimiz tomonidan "Biz kelajagi buyuk O'zbekistonni – mard va oliyanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz", - degan maqsadimizning amaliy isbotidir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi Q-639 sonli " Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>.
2. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 1 tom 52 bet.
3. www.lex.uz